# FAROBIY ASARLARIDA ILMLAR TASNIFI VA ULARNING ICHIDA AXLOQ HAMDA SIYOSAT (DAVLAT BOSHQARUVI VA FUQAROLIK) ILMLARINING TUTGAN O‘RNI.

***G‘oyibnazarov Rahmatilla***

*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi dotsenti*

*pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

***Qurbonova Ruxshona***

*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi*

*Dinshunoslik yo‘nalishi 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Maqolada Abu Nasr Farobiyning “Ihso al-ulum” asaridagi ilmlar tizimi va unda axloq hamda siyosat (davlat boshqaruvi va fuqarolik) ilmlarining egallagan o‘rni tahlil qilinadi. Farobiyning to‘rt asari ingliz, rus va o‘zbek tilidagi tarjimalari asosida qiyosiy-matniy tahlil qilindi. Farobiy axloqni alohida ilm sifatida ajratmaydi: u “madaniy ilm” tarkibida saodat va fazilatlarni belgilovchi qism bo‘lib keladi, davlat boshqaruvi esa shu bilimni shahar va xalqlar hayotiga tatbiq etuvchi “podshohlik san’ati” sifatida talqin qilinadi. Hukmdorning asosiy vazifasi ta’lim va ta’dib orqali fuqarolarda fazilat shakllantirishdan iborat ekani ko‘rsatildi. Natijalar tarbiya nazariyasi va fuqarolik ta’limida ta’lim maqsadlarini qayta ko‘rib chiqish uchun tarixiy-nazariy asos bo‘la oladi.

**Kalit so‘zlar:** Farobiy, ilmlar tasnifi, Ihso al-ulum, madaniy ilm, axloq, siyosat, fozil shahar, ta’lim va ta’dib.

**Аннотация.** В статье анализируется система наук в трактате Абу Насра аль-Фараби «Ихса аль-улум» и место, которое в ней занимают этика и политика (государственное управление и гражданская жизнь). Четыре трактата аль-Фараби изучены методом сравнительного текстуального анализа по английским, русским и узбекским переводам. Аль-Фараби не выделяет этику в самостоятельную науку: она

входит в «гражданскую науку» как часть, определяющая счастье и добродетели, а государственное управление трактуется как «царское искусство», воплощающее это знание в жизни городов и народов. Показано, что главная задача правителя состоит в формировании добродетелей граждан посредством обучения (таалим) и воспитания нравов (тадиб). Результаты дают историко-теоретическую основу для пересмотра целей образования в теории воспитания и гражданском образовании.

**Ключевые слова:** аль-Фараби, классификация наук, Ихса аль-улум, гражданская наука, этика, политика, добродетельный город, таалим и тадиб.

**Abstract.** The article examines the system of sciences in Abu Nasr al-Farabi's Enumeration of the Sciences (Ihsa' al-'ulum) and the place it assigns to ethics and politics, understood as statecraft and civic life. Four of his works were compared through English, Russian and Uzbek translations. Al-Farabi does not treat ethics as a separate science. It forms the part of "political science" (al-'ilm al-madani) that defines happiness and the virtues, while government is described as the "royal craft" that brings this knowledge into the life of cities and nations. The ruler's main task is shown to be the formation of virtue in citizens through instruction (ta'lim) and character formation (ta'dib). The findings offer a historical and theoretical basis for reconsidering the aims of education in moral and civic education.

**Keywords:** al-Farabi, classification of sciences, Enumeration of the Sciences, political science, ethics, politics, virtuous city, instruction and character formation.

## KIRISH

O'zbek pedagogikasida Farobiy ko'proq "Fozil odamlar shahri" muallifi sifatida tilga olinadi. Uning hukmdor fazilatlari va adolat haqidagi fikrlari ko'p keltiriladi, lekin bu fikrlar qaysi bilim tizimining bir qismi ekani kam so'raladi. Holbuki mutafakkir ilmlarni qanday bo'lgani uning bilim, tarbiya va boshqaruv bog'liqligini qanday tushunganini ko'rsatadi, tizimdan uzib olingan o'git esa Farobiyni oddiy nasihatgo'yga aylantiradi.

Bu tizim eng to‘liq bayon qilingan asar “Ihso al-ulum”dir. XII asrda u Lotin tiliga ikki marta, Kremonalik Gerard va Dominik Gundissalin tomonidan tarjima qilingan va Yevropa o‘rta asr ilmlar tasnifiga ta’sir ko‘rsatgan.

M. M. Xayrullayev Farobiy dunyoqarashini O‘rta Osiyo falsafasi tarixi kontekstida tizimli yoritgan. O. Bakar Farobiy tasnifini islom tafakkuridagi keyingi tasniflar bilan qiyoslagan. M. Mahdi (Mahdi, 2001) Farobiyni islom siyosiy falsafasining asoschisi deb biladi va madaniy ilmni uning falsafasi markaziga qo‘yadi. M. Galston (Galston, 1990) siyosat va fazilat munosabatini tadqiq qilgan. N. Germann (Germann, 2021) esa Farobiy jamiyat falsafasida ikki tarkibiy qism borligini ta’kidlaydi: biri shaxs kamoloti bilan bog‘liq axloqiy-antropologik qism, ikkinchisi shahar tuzilishi va boshqaruvi haqidagi qism.

So‘nggi yillarda Farobiy ta’lim nazariyasi nuqtayi nazaridan ham qayta o‘qilmoqda: uning ilmi utilitar yondashuvga muqobil sifatida ko‘rilgan (Imanbayeva et al., 2023), fazilat g‘oyasining turkiy-islomiy tafakkurdagi davomi kuzatilgan (Baizhuma et al., 2025), ta’lim va ta’dib tushunchalari tahlil qilingan (Paltore et al., 2025).

Bu ishlarda tasnif masalasi ko‘proq bilim nazariyasi doirasida, siyosiy falsafa esa alohida o‘rganiladi. Pedagogik tadqiqotlar Farobiyning tarbiyaga oid fikrlarini keng keltirsa-da, axloqning tasnifdagi o‘rni bilan uning tarbiyaviy vazifasi o‘rtasidagi aloqani kamdan-kam tahlil qiladi. Maqolaning maqsadi “Ihso al-ulum”da axloq va siyosat ilmlarining tutgan o‘rnini aniqlash hamda shu o‘rin Farobiyning ta’lim va tarbiya haqidagi qarashlarini qanday belgilaganini ko‘rsatishdir.

## METODLAR

Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega: xulosalar birlamchi matnlar va ularning ilmiy talqinlari tahliliga tayanadi.

Birinchi bosqichda “Ihso al-ulum”ning tuzilishi ingliz (Alfarabi, 2001a) va rus (Аль-Фараби, 1970) tarjimalari bo‘yicha strukturaviy tahlil qilindi: har bir bo‘limda qaysi fanlar qanday tartibda sanalgani aniqlandi. Bu usul tanlanishiga sabab shuki, tasnifda ilmning

qayerga qo‘yilgani muallifning shu ilm haqidagi qarashini matndagi ta’riflardan kam bo‘lmagan darajada ochib beradi.

Ikkinchi bosqichda germenevtik va qiyosiy-matniy tahlil qo‘llanildi. “Ihso al-ulum”ning beshinchi bo‘limidagi madaniy ilm ta’rifi Farobiyning boshqa uch asari bilan solishtirildi: “Fozil odamlar shahri” (Walzer, 1985; Forobiy, 2018), “Saodatga erishuv haqida” (Alfarabi, 2001b; Аль-Фараби, 1973) va “Davlat arbobining hikmatlari” (Alfarabi, 2001a; Аль-Фараби, 1973). Ularning har birida axloq yoki boshqaruv markaziy masaladir. Farobiy tasnifi Aristotel va Ibn Sinodagi amaliy falsafa bo‘linishi bilan ham qiyoslandi.

Tahlil arabcha asl matn bo‘yicha emas, tarjimalar bo‘yicha olib borildi. Shu sababli bir asarning bir necha tarjimasi solishtirildi, asosiy atamalar (al-ilm al-madaniy, fazila, saodat, ta’lim, ta’dib) tarjimonlar bergan transliteratsiya orqali tekshirildi.

## NATIJALAR

**Ilmlar tizimining tuzilishi.** “Ihso al-ulum” besh bo‘limdan iborat. Til ilmi va mantiq bilim olish vositalari sifatida birinchi o‘rinda turadi. So‘ng matematik ilmlar, tabiiyot va ilohiyot, oxirida madaniy ilm, fiqh va kalom keladi (1-jadval). Kirish qismida Farobiy asarni o‘quvchi qaysi ilmni o‘rganishni tanlashi va o‘zini biror ilm egasi deb da’vo qilgan kishining bilimini tekshira olishi uchun yozganini aytadi, ya’ni asar ta’limiy maqsadda yozilgan.

**1-jadval. “Ihso al-ulum” tuzilishi va axloq hamda siyosatning undagi o‘rni**

| **Bo‘lim** | **Tarkibi** | **Axloq va siyosatga munosabati** |
|---|---|---|
| I. Til ilmi | So‘z, grammatika, yozuv, she’r | Ifoda vositasi |
| II. Mantiq | Isbot, dialektika, sofistika, ritorika, poetika | Ritorika va poetika xalqni ishontirish vositasi |

| | | |
|---|---|---|
| III. Matematik ilmlar | Arifmetika, geometriya, optika, astronomiya, musiqa, mexanika va boshq. | Bevosita aloqasi yo‘q |
| IV. Tabiiyot va ilohiyot | Tabiat jismlari; birinchi sabablar | Saodatning nazariy asosi |
| V. Madaniy ilm, fiqh, kalom | Saodat, ixtiyoriy xatti-harakatlar, fazilatlar; shahar boshqaruvi; diniy huquq va aqida himoyasi | Axloq va siyosat shu bo‘limda birlashgan |

**Axloq madaniy ilm tarkibida.** Tasnifda “axloq ilmi” degan alohida sarlavha yo‘q. Farobiy madaniy ilmni ixtiyoriy xatti-harakatlar, turmush tarzlari, ularni yuzaga keltiradigan malaka va xulq turlarini, shuningdek, ular ko‘zlaydigan maqsadlarni o‘rganuvchi ilm deb ta’riflaydi (Alfarabi, 2001a). Ilmning birinchi qismi chin saodatni saodat deb gumon qilinadigan narsalardan ajratadi. Boylik, shon-sharaf va lazzat faqat shu dunyo uchun qo‘yiladigan maqsadlar bo‘lib, chin saodat bilan teng emas. Shundan keyin chin saodatga olib boradigan harakat va malakalar sanab chiqiladi.

Bu tuzilishning qanchalik o‘ziga xos ekanini keyingi tasniflar bilan solishtirganda ko‘rish mumkin. Ibn Sino aqliy ilmlar bo‘limlariga oid risolasida amaliy falsafani axloq, uy tadbiri va shahar tadbiriga ajratadi. Nasiriddin Tusiyning “Axloqi Nosiriy”si ham shu uch qismli tartibga qurilgan. Farobiyda esa axloq siyosiy bilimning boshlang‘ich qismi bo‘lib qoladi va undan alohida fan sifatida ajratilmaydi.

**Siyosat podshohlik san’ati sifatida.** Madaniy ilmning ikkinchi qismi fazilatli xatti-harakat va malakalarni shahar va xalqlarda qanday tartibga solish va saqlab qolish kerakligini o‘rganadi. Farobiy buni podshohlik san’ati (al-mihna al-malikiyya) deb ataydi va fazilatli boshqaruvni johil boshqaruvdan maqsadiga qarab ajratadi. Shu bo‘limda fiqh va kalom ham keladi: fiqh dinni asoslagan shaxs aniq belgilamagan hukmlarni uning maqsadidan kelib chiqib chiqaradi, kalom esa u belgilagan qarash va amallarni himoya

qiladi. Germann (2021) “Din kitobi”ga tayanib, Farobiyda din birinchi rahbar belgilagan qarash va amallar majmui, ya’ni boshqaruv vositasi ekanini ko‘rsatadi.

**Fozil shahar va uning ziddlari.** “Fozil odamlar shahri”da bu nazariya shaharlar tipologiyasiga aylanadi. Fozil shahar aholisi chin saodatga erishish uchun hamkorlik qiladi. Unga qarama-qarshi johil, fosiq, o‘zgargan va adashgan shaharlar qo‘yiladi, johil shahar esa yana zaruriy ehtiyojlar, boylik, lazzat, shon-sharaf, g‘olib kelish yoki cheklanmagan erkinlikni maqsad qilgan turlarga bo‘linadi (Walzer, 1985). Shaharlarni hamkorlikning maqsadi ajratadi, bu esa “Ihso al-ulum”dagi chin va gumon qilingan saodat farqining siyosiy shaklidir. Birinchi rahbarning o‘n ikki tug‘ma xislati orasida tez anglash, kuchli xotira, ravon nutq va ilmga muhabbat bor, ular tarbiyachidan ham talab qilinadi.

**Hukmdor tarbiyachi sifatida.** “Saodatga erishuv haqida” risolasida Farobiy fazilatlarni xalqlar va shaharlarda yuzaga keltirishning ikki yo‘lini ajratadi. Ta’lim nazariy fazilatlarni hosil qiladi, ta’dib esa axloqiy fazilatlar va amaliy hunarlarni odat orqali shakllantiradi (Alfarabi, 2001b). Ta’dib ixtiyoriy, ya’ni ishontirish orqali, yoki majburlov yo‘li bilan amalga oshiriladi. “Davlat arbobining hikmatlari”da siyosat arbobi jism tabibiga qiyoslanadi: tabib tanani davolagani kabi, u ruhlarning sog‘lig‘i bilan shug‘ullanadi (Alfarabi, 2001a). Germann (2021) xulosasiga ko‘ra, Farobiyda boshqarish birinchi navbatda yo‘l ko‘rsatish, o‘qitish va odatlantirishdir. Tahlil natijasi 2-jadvalda umumlashtirildi.

**2-jadval. Madaniy ilmning ikki qismi va ularning pedagogik mazmuni**

| Jihat | Birinchi qism (axloq) | Ikkinchi qism (siyosat) |
|---|---|---|
| Asosiy savol | Chin saodat nima va unga qaysi fazilatlar olib boradi? | Bu fazilatlar shahar va xalqlarda qanday qaror topadi va saqlanadi? |
| Asosiy tushunchalar | Saodat, ixtiyoriy harakat, malaka, fazilat | Podshohlik san’ati, fozil va johil boshqaruv, din, qonun |

| | | |
|---|---|---|
| Pedagogik ma’nosi | Tarbiya maqsadini belgilaydi | Tarbiya vositalarini belgilaydi: ta’lim (nazariy fazilatlar) va ta’dib (axloqiy fazilatlar, odat orqali) |
| Kim amalga oshiradi | Faylasuf | Birinchi rahbar va uning izdoshlari |

**MUHOKAMA**

Farobiy axloqni siyosatga kiritib, Aristotelda boshlangan g‘oyani keskinroq ifodalaydi. “Nikomax axloqi”ning boshida siyosat inson ezguligini o‘rganadigan bosh ilm deb ataladi (Aristotle, 2009). Biroq Aristotel merosida axloq va siyosat alohida asarlarda bayon etilgan. Farobiy esa bu birlikni tasnifning o‘zida mustahkamlagan, natijada uning tizimida shaxs kamoloti jamiyat tuzilishidan ayri holda o‘ylanmaydi. Ibn Sino va Tusiydagi uch qismli tartib ilmlarni aniqroq chegaralaydi, lekin bu bog‘liqlikni susaytiradi.

Pedagogika uchun eng muhim jihat ta’lim va ta’dibning bir tizimga birlashtirilganidir. G. Biyesta (Biesta, 2009) natijalar o‘lchovi ustun bo‘lgan hozirgi ta’limda “yaxshi ta’lim nima?” degan savol chetga surilganini va maqsad masalasiga qaytish zarurligini yozadi. Farobiyda bu savol tasnifning o‘zida javob topgan: bilim berish va fazilat tarbiyasi bir maqsadga, chin saodatga xizmat qiladi. Imanbayeva va hammualliflari (2023) ham Farobiyni ta’limga utilitar qarashga qarshi qo‘yadi, bizning tahlil esa bu fikrni tasnif tuzilishi bilan asoslaydi.

Farobiy modelini bugungi maktab va oliy ta’limga ko‘chirishda ehtiyot bo‘lish kerak. Fozil shahar qat’iy ierarxiyaga qurilgan, ta’dib esa majburlovga ham yo‘l qo‘yadi. Syukri va hammualliflari (2025) bu ierarxiya tenglik va demokratik ishtirok talablari bilan ziddiyatga kirishini to‘g‘ri qayd etgan. Shu sababli Farobiy merosidan ta’lim maqsadlarini muhokama qilishda manba sifatida foydalanish o‘rinli, uni bugungi ta’limga andoza qilib olish esa bahsli.

Atamalar talqini alohida e’tibor talab qiladi. Paltore va hammualliflari (2025) maqolasining asosiy matnida ta’lim nazariy, ta’dib esa axloqiy va amaliy fazilatlarni shakllantirishi to‘g‘ri ko‘rsatilgan, annotatsiyada esa bu munosabat teskari berilgan. Tarjimalar orqali ishlaganda bunday chalkashlik oson yuzaga keladi, shuning uchun asosiy atamalarni bir necha tarjima bo‘yicha tekshirish zarur.

Tadqiqot tarjimalarga tayanadi, Farobiyning “As-siyosat al-madaniyya” (Alfarabi, 2015) kabi asarlari esa faqat qisman jalb qilindi. Taklif etilgan pedagogik talqin nazariy xarakterga ega va empirik tekshirilmagan.

## XULOSA

“Ihso al-ulum”da axloq mustaqil ilm sifatida ajratilmagan. U madaniy ilmning birinchi qismi bo‘lib, chin saodatni gumon qilingan saodatdan farqlaydi va unga olib boruvchi fazilatlarni belgilaydi. Davlat boshqaruvi shu bilimni shahar va xalqlarda qaror toptiruvchi podshohlik san’ati sifatida talqin qilinadi, fiqh va kalom esa shu ilmga tayanuvchi amaliy fanlar sifatida u bilan bir bo‘limda keladi.

Farobiy uchun siyosat bilan tarbiya ajralmas: fozil shaharni ajratuvchi mezon hamkorlikning maqsadi bo‘lsa, hukmdorning bosh vazifasi ta’lim va ta’dib orqali fuqarolarda fazilat hosil qilish, ya’ni tarbiyachilikdir. Bu tizim ta’lim maqsadini bilim berish bilan cheklamaslikka tarixiy misol bo‘ladi, ammo uning ierarxik tuzilishi va majburlovga yo‘l qo‘yishi bugungi demokratik ta’lim tamoyillariga mos emas.

Keyingi tadqiqotlarda ta’lim va ta’dib atamalarini arabcha asl matnlar bo‘yicha o‘rganish hamda Farobiy tasnifining Yusuf Xos Hojib va Alisher Navoiy asarlaridagi aksini qiyosiy tahlil qilish lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alfarabi. (2001a). The political writings: “Selected aphorisms” and other texts (C. E. Butterworth, Trans.). Cornell University Press.

2. Alfarabi. (2001b). Philosophy of Plato and Aristotle (M. Mahdi, Trans.; Rev. ed.). Cornell University Press.

3. Alfarabi. (2015). The political writings, Volume II: “Political regime” and “Summary of Plato’s Laws” (C. E. Butterworth, Trans.). Cornell University Press.

4. Aristotle. (2009). The Nicomachean ethics (D. Ross, Trans.; L. Brown, Ed.). Oxford University Press.

5. Baizhuma, S., Meirbayev, B., Baitenova, N., & Lokman, A. A. (2025). The revival of al-Farabi’s ethical idea: Virtue and the spiritual foundations of Turkic-Islamic civilization. Journal of Al-Tamaddun, 20(2), 187–197. https://doi.org/10.22452/JAT.vol20no2.13

6. Bakar, O. (1998). Classification of knowledge in Islam: A study in Islamic philosophies of science. Islamic Texts Society.

7. Biesta, G. (2009). Good education in an age of measurement: On the need to reconnect with the question of purpose in education. Educational Assessment, Evaluation and Accountability, 21(1), 33–46. https://doi.org/10.1007/s11092-008-9064-9

8. Forobiy, A. N. (2018). Fozil odamlar shahri. Toshkent: Yangi asr avlodi.

9. Galston, M. (1990). Politics and excellence: The political philosophy of Alfarabi. Princeton University Press.

10. Germann, N. (2021). Al-Farabi’s philosophy of society and religion. In E. N. Zalta (Ed.), The Stanford encyclopedia of philosophy (Spring 2021 ed.). https://plato.stanford.edu/entries/al-farabi-soc-rel/

11. Imanbayeva, Zh., Edelbay, S., & Kenzhegulov, N. (2023). Әл-Фарабидің философиялық-педагогикалық ілімі [Philosophical-pedagogical teaching of al-Farabi]. Journal of Philosophy, Culture and Political Science, 84(2), 13–23. https://doi.org/10.26577/jpcp.2023.v.84.i2.2

12. Mahdi, M. (2001). Alfarabi and the foundation of Islamic political philosophy. University of Chicago Press.

13. Paltore, Y., Khoshbateni, H., & Kassymbayev, K. (2025). The educational philosophy of al-Farabi: A linguistic-philosophical analysis of “virtue,” “happiness,” and “civic ethics.” Journal of Oriental Studies, 114(3), 15–28. https://doi.org/10.26577/JOS202511432

14. Syukri, Adenan, & Syahminan. (2025). Reinterpreting justice in Al-Farabi’s political philosophy: Relevance to contemporary Islamic human rights thought. MILRev: Metro Islamic Law Review, 4(1), 489–516. https://doi.org/10.32332/milrev.v4i1.10466